

# **TARBIYA FANI O'QITUVCHISINING TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA SIRTQI TA'LIM TALABALARIDA DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Qodirov Xasanboy Oribjonovich, Qosimova Xolida Nabiyevna**

FarDU. Sirtqi bo`lim,

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada “2021-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, yangi taxrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni “Milliy dasturi” mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va uslubiy asosi, uning asosiy maqsadi komil inson vaetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash mavzusi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovation konseptual globallashuv intellektual konsepsiya mexanizm metodtexnologiya

O‘zbekiston Respublikasi bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyatni va huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lidan sobit qadamlik bilan bormoqda. Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning ta’lim tizimini takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. Xususan, 2021-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi»ning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida uzlusiz ta’lim tizimini keng isloh qilishga alohida e’tibor berildi.

2021-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, yangi taxrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni Milliy dasturi” mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va uslubiy asosi bo‘lib, uning asosiy maqsadi komil inson vaetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdir. Mazkur qonun va dasturni ro‘yobga chiqarish ta’lim tizimini tubdan qayta qurishni, xalq ta’limi taraqqiyotining konseptual qoidalari qayta ko‘rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobjiy hal qilishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovation jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovation tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor karatilmoxda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik

bilan o‘rganilayotir. Natijada, O‘zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtida, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barhamtopdi. Bu holtarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘riizohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etishim konini berdi.

Inson aqli borasida Sharqda qaror topgan qarashlarga ko‘ra, aql ikki xil, ya’ni tabiiy va kasbiy bo‘ladi. Tabiiy aql insonga tug‘ma in’om etiladi. Kasbiy aql esa o‘qish, ilm olish va tajriba tufayli orttiriladi. Kasbiy aqlni shakllantirishdek sharaflvi mashaqqatli vazifa aynan pedagoglar zimmasiga yuklatilgandir. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobidagi “Tarbiyaning zamoni” bobida shunday jumlalar bor: “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga “birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak”. Aynan ana shu maktab va madrasa tarbiyasini avval ham, hozir ham muallim-pedagoglar amalga oshirib kelishgan<sup>1</sup>.

Bugungi holat shundayki, oilada ota-onan o‘z bilganicha, bog‘cha va maktabda tarbiyachi va o‘qituvchilar o‘z bilganicha, aniq bir metodikaga tayanmagan holda ta’lim bermoqda. Natijada biz xorijiy tilni yaxshi biladigan, lekin tarbiyasi maromigaetmagan yoshlarni voyagaetkazyapmiz.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’limda o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit tizim mavjud emas. Maktabgacha ta’lim – maktab – oliy ta’limdagi o‘quv dasturlari, fanlar va ta’lim-tarbiya mexanizmida o‘zaro bog‘liklik yo‘q, bir-biriga uyg‘un emas. Ularning har biri alohida-alohida ajralib, bo‘linib turibdi. Aslida barcha muammolar shuerda yuzaga kelmoqda. Shuning uchun «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini» ishlab chiqish zarur. Ushbu Konsepsiya tarbiyaviy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash uchun barcha mas’ul idoralarning vazifalari aniq belgilab qo‘yilishi zarur.

Bunda, Prezident Administrasiyasi – tarbiyaning g‘oyaviy mohiyati va strategiyasi yo‘nalishini belgilashga, Vazirlar Mahkamasi – strategiyaning ijrosini ta’minlash, amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat kilib borish va moliyalashtirish, mutasaddi vazirlik, idora va hokimliklar – belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga mas’ul bo‘lishlari lozim.

«Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhda tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharaflvi vazifa ekanligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan holda maktabda bolalarga tarbiya berish maqsadida o‘qitilayotgan «Milliy g‘oya», «Odobnom», «Dinlar tarixi», «Vatan tuyg‘usi» kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona «Tarbiya» fanini joriy qilish kerakligi ta’kidlandi<sup>2</sup>.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida «Tarbiya» fani konsepsiysi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Shuningdek, Konsepsiya belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarni ma’nан va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng

jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Demak, «Tarbiya» fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida 2021–2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Mana shu tashabbaus asosida Vazirlar Mahkamasi 06.07.2021 yildagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarorini qabul qildi<sup>3</sup>.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun «Tarbiya» fani Konsepsiysi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan «Bola huquqlari to'g'risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Yoshlar-2030» strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga asoslandi.

Yagona «Tarbiya» fani 1-9-sinflarda – 2021-2021 o'quv yilidan, 10–11-sinflarda esa – 2021–2026 o'quv yilidan boshlab ajratilgan umumiyl soatlar doirasida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtiradi.

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning yaratilishini muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha tuzuvchilar guruhi tarkibi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun «Tarbiya» fani konsepsiysi.

Xalq ta'limi vazirligiga quyidagi vazifalar topshirildi:

«Tarbiya» fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2021 yil 10 iyulga qadar o'quv yiliga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1–9-sinflari uchun hamda 1 dekabrga qadar 2021-2026 o'quv yiliga 10–11-sinflar uchun mo'ljallangan yangi fan bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish;

2021 yil 15 iyulga qadar 1–9-sinflar hamda 2022 yil 1 mayga qadar 10–11-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni chop etish bo'yicha istisno tariqasida deklarasiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish;

«Tarbiya» fanidan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yangi o'quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etish va ularning joylarga yetkazilishini ta'minlash;

2021 yil iyul oyidan boshlab yangi o'quv yili boshlangunga qadar «Tarbiya» fani bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturlari va darsliklar asosida umumta'lim muktablaridagi «Boshlang'ich ta'lim», «Milliy g'oya va huquq», «Tarix» va «Dinshunoslik» mutaxassisligiga ega fan o'qituvchilari uchun xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida «Tarbiya» fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

malaka oshirish kurslari davomida yangi fandan tayyorlangan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan o'tkazish.

Hujjatda belgilanishicha:

«Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni nashrga tayyorlash va chop etish, yetkazib berish, tuzuvchilarga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar darslik va o‘quv-metodik majmualarning umumiy narxiga kiritiladi;

«Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv majmularini xarid qilish va yetkazib berish xarajatlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-sinf, Mehribonlik uylari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlari o‘quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar farzandlarini hamda o‘qituvchilar uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar, multimedia ilovalari va o‘quv-metodik majmualar nashr etilishi, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta’minalash – Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan;

o‘quvchilarni ijara asosida darsliklar bilan ta’minalash – Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Xalq ta’limi vazirligiga quyidagi vazifalar topshirildi:

o‘qitish: O‘zbek tili», «O‘zbek tili va adabiyoti», «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi», «Pedagogika va psixologiya», «Dinshunoslik va islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)», «Psixologiya (Din sosiopsixologiyasi)» ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilariga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarни ko‘rish va mazkur ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish uchun kadrlar tayyorlanadigan yangi ta’lim yo‘nalishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflarni kiritish<sup>4</sup>.

Tarbiya fanini boshlang‘ich ta’lim, milliy g‘oya va huquq, tarix hamda dinshunoslik mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilar o‘qitilishi belgilangan<sup>5</sup>.

«Tarbiya» fani uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatlari hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozisiyasi, mas‘uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘yan.

Ushbu fan darsliklari Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi rahbarligida professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi o‘qituvchilar, psixologlardan iborat mualliflar jamoasi bilan hamkorlikda yaratildi. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi<sup>6</sup>.

Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog‘lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo‘l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o‘quv kurslari dasturlarini birlashtirgan holda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarning negizi hisoblanadi. Konsepsiya «Tarbiya» fanini o‘rganish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

“Tarbiya” fani mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bo‘lib, uni o‘qitish asoslari, metodlari va texnologiyalari ishlab chiqilishi kerak. Shu sababli mazkur fan o‘qituvchilarining ko‘nikmalarini kuchaytirib borish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini unga tayyorlash va muammolar bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish taqozo etiladi. Bu boradagi tajribalar muvofiqlashtirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR

1. Нурумбекова Я.А. Катталар таълимининг ўзига хос хусусиятлари//Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция материаллари. 27 апрель, 2018 йил. – Б. 17.
2. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент, 2015.
3. Толипова Ж.О. Компетенциявий ёндашув талаблари асосида бўлажак ўқитувчиларни педагогик фаолиятга тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш муаммолари// Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция материаллари. 27 апрель, 2018 йил. – Б. 227-228.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ПФ-4947-сон фармони. // Ўзбекистон Республикаси Конун ҳужжатлари тўплами. 2017 й., 6-сон, 70-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги «Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3289-сон қарори. // «Халқ сўзи», 2017 йил 27 сентябрь.
6. Турматов Ж.Р. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик компетентлигини шакллантиришнинг назарий асослари// Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция материаллари. 27 апрель, 2018 йил.– Б. 242.
7. Soliyev O. dissertation, 2023.
8. Kadyrov H.O. PEDAGOGICAL SKILL IN THE ACTIVITY OF A TEACHER IS A PRODUCT OF INDIVIDUAL CHARACTERISTICS. International Journal of Pedagogics. Volume 02 Issue 12-2022.
9. Kadirov H.O. DEVELOPMENT OF SOCIAL MATURITY OF STUDENTS IN THE PROCESS OF SOCIALLY USEFUL ACTIVITIES. ANNALS OF FOREST RESEARCH. Ann. For. Res. 65(1): 902-910, 2022.
10. Qodirov X.O. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. “XALQ TA’LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI”. 41-45. 2022
11. Kosimova, X. (2022). THE IMPORTANCE OF READING CULTURE IN THE FORMATION OF A HEALTHY SPIRITUAL CLIMATE IN THE FAMILY. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 7-13.
12. Qosimova, X. (2022). THE SIGNIFICANCE OF LIBRARY CULTURE IN FORMING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY. Science and Innovation, 1(8), 142-148.
13. Qosimova, X. (2022). OILADA SOG’LOM MA’NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KITO BXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI. Science and innovation, 1(B8), 142-148.
14. ҚОСИМОВА, X., & КАРИМОВА, Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 612-615.

# INTERNATIONAL

---

## Models and Methods in Modern Investigations

### Congress on

2023: International Congress on Models and Methods in Modern investigations (Poland)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/congress>

15. Джалолова, М. (2021). Эъзоза Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова.". ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." *Scientific progress*, 1.
16. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). Oilada Erkin Fuqaro Shaxsi Va Barkamol Avlodning Shakllanishi. So 'Ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi, 1(1), 232-238.
17. Kasimova, K. N. (2022). The role of reading culture in increasing the effectiveness of education and upbringing. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 17-24.
18. Косимова, X. Н. (2021). Китобхонлик Кўникмасини Шакиллантиришда Оиласга Педагогик Тавсиялар Бериш Тизими. *Scientific progress*, 1(6), 107-110.
19. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, X. Н. (2021). Воспитание Сенсорного Восприятия У Детей Дошкольного Возраста. *Scientific progress*, 1(6), 102-106.